

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон  
қарори билан биология, кишлопк хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,  
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик  
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия  
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**3 май — Жаҳон матбуот эркинлиги  
кунига бағишиланган маҳсус сон**

**Хива-2021**

**Бағыт мұддәттері:**

Абдуллаев Нарым Александрович, б.ф.д., проф.

**Бағыт мұддәттерін қарастырып:**

Хасанов Шабдан Бекшіланович, к.ф.н., к.и.к.

**Таңдай жайылыш:**

Абдуллаев Нарым Александрович, б.ф.д., проф.

Абдуллаев Бадреттін Есімжанович, ф-и.ф.д.

Абдуллаев Риманш Батырханович, маг.ф.д., проф.

Абдуллаев Айдар Абдураселович, к.ф.д., проф.

Аманбеков Назархан Калтаевич, к.ф.д., аспид.

Бекбайдембет Ханшият, ф.ф.л., проф.

Диностан Саптар Рахимбекович, кандидат

Дүрдіев Гөлзар Салынгана, кандидат

Дүйнешек Бекшіншір, маг.ф.д., проф.

Нұрланғызы Бектішшір Гүлшатын, к.ф.д., аспид.

Жұматайған Талғат Омарбеков, ф.ф.л., док.

Килемов Шакырат Мұхамеджанович, к.ф.н.

Күнгілов Үлгіри Омарбеков, ф.и.ф.д.

Лаире Жеке, к.ф.д., проф.

Мейсек С. Энгін, б.ф.д., проф.

Мерзін Сирізатхан Зәлімжанов, ф-и.ф.д., проф.

Рахимов Рахим Абдураселович, к.ф.д., проф.

Рұзбеков Розын Нұттын, маг.ф.д., проф.

Рұзбеков Сапарбек, ф.ф.д., проф.

Рұзметов Бекшіншір, к.ф.д., проф.

Садықова Аманбек, ф.и.ф.д., аспид.

Сатық Сапарбеков Конаков, к.ф.д., проф.

Сарсенов Ойбыл Онышкесов, к.ф.д., проф.

Сатшев Гөлшатыншір, к.ф.д., проф.

Толғебеков Коньшатын Шаройбеков, б.ф.д., аспиденше

Халықаралық Бекшіншір Рұхимжанов, б.ф.д.

Чікімов Отынғазар Онышкесов, ф.ф.д., док.

Шалдарбеков Эрсан Бергенкулович, б.ф.д., проф.

Эрмеков Жаниска Исламжанов, ф.ф.м., док.

Энгіншев Рұстемжан Абдураселов, к.ф.д., док.

Үркебеков Гайрат Үркебеков, ф.и.ф.д.

Үркебеков Абдурасел Дүрдіев, ф.ф.д.

Халықаралық Мадура Султановна, фил.ф.д.

Хасанов Шабдан Бекшіланович, к.ф.н., к.и.к.

Хораты Мальмуи институтының алғарыштық шының аурасы - №Манас-001 (76), Хораты Мальмуи жағымыны, 2021 й. – 162 б. – Босма шынының электрондық версияны – <http://qaznu.edu.kz/>

ISSN 2091-573 X

Мұғалжар: Қызылорда Республикасының Фендер институтының мактағынан бұлданы – Хораты Мальмуи институтының

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI**

Ходжаяева Д.И., Xusenova М.О. Fonetikaning o'r ganish sohasi va uning turlari .....	98
Уавминова Н.М., Qurbonova G.Yu. Innovative approach to learn English language .....	102
Yokubova Sh.Yu. Obyektlar birikmalar poetik nuzq vositasi sifatida .....	104
Yusupova N.N. Transformation of the acquired knowledge of a foreign language in the process of globalization .....	106
Алленова И.В. Внедрение инноваций в систему высшего образования Узбекистана .....	108
Ачилов М.Н. Ибора ва бирликларнинг таҳлилида этнографиянинг роли .....	110
Базарова У.М. Олий ўкув юрти талабаларининг инглиз тили дарсларида маънавий – эстетик тарбиялашнинг диагностикаси .....	114
Бобоҷонов Б. Формирование культуры речи у студентов высших учебных заведений через преподавание немецкого языка .....	116
Ганиева Г.З. Инглиз тили топонимик лугати таҳлили .....	118
Джеббаров Ш.Х. Концепт лингвокультурологик категория сифатида .....	122
Каримова Ж.Ш. Синонимические отношения между фразеологическими единицами с компонентами – названий флоры .....	124
Киличева Ф.Б. Эвфемизмы в современном русском языке .....	127
Кузибаева Р.Ш. Использование современных педагогических технологий на уроках русского языка .....	128
Кузибаева Р.Ш. Роль русского языка в формировании мировоззрения студентов высших учебных заведений .....	130
Мадаминова Н.Р. Основные вехи развития композитообразования .....	132
Рузиева Д.С. Интеллектуал роман генези специфик таснифи .....	135
Рузиева Н.Х. Инглиз тилида хушмуомалалик категориясининг социолингвистик таҳлили-хушмуомалалик, мавқе ва контекст .....	139
Сафармаҳматова З.Н. Паремиологик бирликлар тушунчаси ва унинг таркибий-типологик хусусиятлари .....	142
Ташева У.Т. Методы совершенствования преподавания русского языка в высших учебных заведениях .....	146
Турманов Т.М. Грамматические навыки и методы формирования навыков во французском языке .....	148
Ҳакимжанова М.Э. Использование мотивационных возможностей игровых технологий при изучении русского языка .....	150
Ҳакимжанова М.Э. Классификация единиц речевого этикета изучаемого языка в учебных целях .....	152
Шевцова О.В. Аспекты изучения категории количества .....	154
<b>ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
Каримбоева С. Организация самостоятельной работы студентов при изучении высшего образования .....	158
Мирзаева М.Н. Техника олийгоҳи талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш бўлажак мухандислар касбий шахсини шакллантириш .....	160

activities "makes it possible to form key competencies of students, achieve a positive result in the formation of universal educational actions, and implement cross-cultural communication in practice".

**REFERENCES:**

1. Selevko G.K. Modern educational technologies: Textbook. - M.: National education, 1998.
- 2.Ivanova, I. P. Development of creative thinking of students in the conditions of problem-activity training / I. p. Ivanova. - Stavropol, 2002.

**UO'K 811-512****OBYEKTЛИ BIRIKMALAR POETIK NUTQ VOSITASI SIFATIDA***Sh.Yu. Yokubova, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi xilma-xil obyektli birikmalarning poetik nutqda vogelanib turli xil badiiy tasviriy vosita yaratishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Til, nutq, uslub, obyektli birikmalar, poetik nutq, tasviriy vositalar, leksema.

**Аннотация.** В данной статье считается, что различные сочетания предметов в узбекском языке встречаются в поэтической речи и создают разные художественные средства выражения.

**Ключевые слова:** язык, речь, стиль, объектные словосочетание, поэтическая речь, наглядные пособия, лексема.

**Abstract.** In this article, it is considered that different object combinations in the Uzbek language occur in poetic speech and create different artistic means of expression.

**Keywords:** Language, speech, style, object phrases, poetic speech, visual aids, lexeme.

**Kirish.**

Badiiy nutq tili hiassiyotlarimizga yuksak darajada ta'sir qiladigan, ularni uygotadigan va jumbushga keltiradigan, gozallik haqidagi tushunchalarimizni tarbiyalaydigan va shakllantiradigan, fikrimiz va xayolimizni boyitadigan tildir. "Badiiy nutq tili xuddi jonon raqs kabib chinch olmas zavqlarning manbayidir, deb ta'riflaydi adabiyotshunos I.Gafurov. Sakkizinchasi asrda yashagan ulug' hind mutafakkiri Vamana "Uslub nima?" degan savolga: "So'zlarning o'ziga xos qurilishi –uslub. So'zлarni eng yaxshi ma'noda saralash va yaxshi ravish bilan joylashtirish bu uslub. Sozlar qurilishining oziga xosliklari va mohiyati hamda nutqning fazilatlari tajassumi ham uslubdir", deya javob berган [1].

Basharti, sozlarning oziga xos qurilishi, ularni eng yaxshi ma'noda saralash, yaxshi ravish (ya'ni eng muvofiq usul, tarz –izoh bizniki) bilan joylashtirish asosida hosil bo'ladigan mohiyat va uni qamrab olgan nutqning fazilatlari uslub hisoblanar ekan, badiiy uslubni shakllantiruvchi o'ziga xos lisoniy imkoniyatlar manbayi – til vositalariga e'tibor qaratilishi lozim. Taniqli adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov "Adabiyot tildan boshlanadi" maqolasida ta'kidlaganidek, "Badiiyat juda ko'p elementlardan tashkil topadi. Shulardan biri va eng birinchisi til masalasidir" [2].

So'zlovechi yoki yozuvchi o'zi bayon qilayotgan fikrni tinglovchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berishga harakat qiladi. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyevlarning "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida: "Masalan, ko'pincha biror narsa, belgi, xususiyatni tinglovchi yoki o'quvchiga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzundan uzoq va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shunday vaqtarda so'zlovechi yoki yozuvchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda, aytganimizdek, birdan ortiq uzundan uzoq gaplarni qatorlashdan qochadiyu, ammo shu fikrni boshqa vositalardan (jumladan, o'xshatish, sifatlash, kinoya, allegoriya, ellipsis v.h.) foydalangan holda lo'nda va aniq qilib tushuntirishga erisha oladi. Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoshlikda ifoda tasviriy vositalar deyiladi" degan tavsif o'z ifodasini topgan [3].

Demak, tilning vazifaviy uslublari orasida aksari badiiy uslubda qo'llaniladigan, bu uslubning o'ziga xosligini belgilovchi vositalar alohida bir tizimni tashkil etadi. Tasviriy vositalar adabiyotshunoshlik va tilshunoshlik fanlari uchun birday ahamiyatli va ayni paytda, mazkur fanlarni tadqiq manbayi sifatida birlashtiradi.

Asosiy qism. Bizning maqsadimiz badiiy tasvir vositalarining fanimizdagi ilmiy tadqiqini baholash emas, balki tilning badiiy uslubiga xos tasvir vositalari orasida so'z birikmalari, xususan, obyektlili birikmalarning tutgan o'mini aniqlashdir. Tabiiyki, so'z birikmalarning tilning tasviri vositalari sirasidagi o'rni mazkur til birliklarining badiiy nutqda qo'llanilishini kuzatish va uslubiy ahamiyat kasb etganligini dalillash orqali belgilanadi. Shunday ekan, dastlab tasviri vositalar tizimi qanday tashkil etuvchilardan iboratligini ko'zdan kechiraylik.

Metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, kichraytirish, kinoya, allegoriya, jonlantirish, perefraza kabi usullar troplarning turlari bo'sa, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, ritorik so'roq, bog'lovchisizlik, ko'p bog'lovchilik figuralar(stilistik figuralar)ning ko'rinishlari hisoblanadi [4]. O'z navbatida, "tilda muayyan lisoniy-sintaktik qurilish qolipi hosilasi sifatida qaraladigan, lison-nutq farqlanishi asosida yondashilganda nutq birligi maqomini egallaydigan so'z birikmalari qayd etilgan tasviri vositalarning qaysi guruhiiga tegishli?" degan savol tug'iladi.

Ma'lumki, troplar tilning badiiy tasvir vositalaridan bir turini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, trop nutqda so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlashdir. Basharti, troplar eng avval so'zlarning uslubiy qo'llanilishi, ya'ni ko'chma ma'no asosida obrazli nutqni shakllantirishidan hosil bo'lar ekan, so'z birikmalari ham troplarning u yoki bu ko'rinishini yuzaga chiqara olishi, hech bo'limganda, troplarning bir turi sifatida xizmat qilishi mumkin. Negaki, so'z birikmalari ham so'zlar kabi atash, nomlash vazifasiga ega bo'lib, tilning nominativ birliklar tizimi tarkibiga kirdi.

E.Qilichev ta'kidlaganidek, "So'z badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri" sanalar ekan, so'z birikmalari ham so'zlar singari badiiy tasvirning o'ziga xos vositasi, eng asosiysi, obraz va obrazli ifoda yaratish usuli hamda nutqiy omili bo'la oladi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi dalillarga murojaat qilamiz. Obyektlili birikmalarning uslubiy qiymatini aniqlash maqsadida badiiy nutqning eng yuksak, ayni choqda, sermashaqqat ijodiy faoliyatning oliy namunasi – poetik nutqni tanladik. O'zbek tilining poetik qudratini o'z ijodi orqali namoyon etgan zabardast shoir – Abdulla Oripov poetik nutqida qo'llangan obyektlili birikmalarni tahlilga tortdi.

Ijod – bu kashfiyot, yaratish zavqi, o'z-o'zini anglash, namoyon qila bilish, o'z haqiqatiga o'zgalarni ishontirish va ergashtirish, butun bir muhitni o'zgartirishga intilish qudrati ilohiy ilm va zehn, olam va odamni ichdan chuqur bilish san'ati hamda mas'uliyati. A.Oripovning o'z ta'biri bilan aytganda, "ehtiyoj farzandi", Shunday ekan, A.Oripov ijodi Doniyor Begimqulov ta'riflaganidek, "uning tilga nisbatan zargarona munosabatidan guvohlik berib turadi".

Jumladan, shoirning "Tuyg'ular" she'rida qo'llangan obyektlili birikmalar ham D.Begimqulov haqligini ko'rsatadi:

*Dunyo ishlariiga boqib hayron, lol,*

*Shogird ustoziga berdi-ku savol:*

*I. Mudom o'tganlarni yod aylagaymiz,*

*Yod aylab ruhlarin shod aylagaymiz.* [5]

She'riy parchanining uchinchi va to'rtinchisi misrasida o'tganlarni yod aylamoq, ruhlarin(i) shod aylamoq birikmalari ko'zga tashlanadi. Bu SBlari sintaktik qurilish xususiyatiga ko'ra umumiyl o'xshashlikka ega, ya'ni bu nutqiy birliklar [O<sup>1,2</sup> ~ F]=SB qolip ko'rinishining mahsulidir. Albatta, tobe so'z tarkibidagi tushum kelishi birlish usulini belgilovchi muhim morfologik omil bo'lib, hokim vaziyatdagi fe'llar ifodalayotgan harakat (yod aylamoq, shod aylamoq)ning obyektga – o'tganlar, ruhlar, ya'ni ot leksemalar ma'nosida reallashayotgan predmetlar – shaxs va xayoliy mavjudotga o'tganligini ko'rsatib turadi.

Aytish joizki, shoir yaratgan har ikkala birikma ham umumiyl [obyekt-harakat] ma'nosiy o'xshashlik xususiyatiga egaligidan darak beradi. Umumiyl ma'nosiy ularni obyektlili birikmalarning bir ma'noviy tipiga birlashtiradi. Ammo o'tganlarni yod aylamoq va ruhlarin(i) shod aylamoq birikmalari leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birikmalar tarkibidagi so'zlar o'z lug'aviy ma'nolari, denotatlari jihatidan o'zaro tafovutlanadi. Birinchidan, o'tganlarni yod aylamoq birikmasida o'tganlar metonimiya asosida odamlarni, aniqrog'i, shaxs denotatini badiiy tasvirga xos usulda ifodalaydi; ruhlarin(i) shod aylamoq birikmasida xayolan tasavvur etiladigan

mavjudot – *ruh* denotativ ma'no asosida harakatning obyekti sifatida vogelashadi. Ikkinchidan, *yod aylamoq* fe'lli xotirlamoq, eslamoq kabi tafakkur fe'llari leksik paradigmasisiga tegishli bo'lib, paradigmuning emotsiyal-ekspressiv bo'yoqdor a'zosi sifatida boshqa leksemalardan farq qiladi. Shoir lisoniy ong qatlamlarida tayyor bu paradigmadan *eslamoq* yoki *xotirlamoq* leksemalarini emas, aynan *yod aylamoq* leksemasini tanlashiga sabab ham shunda. Zero, poetik nutqqa xos sintaktik tabiat o'tganlarni *eslamoq* birikuv tarziga nisbatan o'tganlarni *yod aylamoq* birikmasini ma'qul ko'radi. Poetik nutqni hosil qiluvchi sintaktik birliliklar orasidan hissiy ta'sirchanlik darajasi yuqori bo'lgan va ruhiy ko'tarinkilik bag'ishlaydigan leksik-semantic birliklarning birikuvidan hosil bo'ladigan so'z birikmalarini saylab oladi. Bu holat *ruhlarin(i) shod aylamoq* birikmasining nima sababdan qo'llanishini ham izohlaydi. Chunki *ruhlarin(i) shod qilmoq*, *ruhlarin(i) shod etmoq*, *ruhlarin(i) xursand qilmoq* kabi obyektlar foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan vaziyatda shoirning lisoniy didiga *ruhlarin(i) shod aylamoq* birikmasi ko'proq mos kelgan va she'rda badiiy ifodani kuchaytirgan. Bunga nafaqat sintaktik omil, balki tushum kelishigining -in shakli orqali yuzaga chiqayotgan morfologik omil ham o'z hissasini qo'shganki, uning badiiy nutqni shakllantirishdagi ahamiyati, ayniqsa, tushum kelishigining uslubiy xoslangan shakli va vazifasini qayd etmaslikning iloji yo'q. Ayni paytda tushum kelishigining uslubiy xoslangan shakli va vazifasi masalasini atroficha tahlil qilish imkonsizligini ta'kidlagan holda, bu kelishik shaktining she'riy nutqdu vazn o'lchoviga mos varianti [O<sup>L</sup> ~ F]=SB qolip hosilalarini poetik nutq qurilishiga muvofiqlashtirishini e'tibordan soqit qila olmaymiz. Negakki, [O<sup>L</sup> ~ F]=SB qolip ko'rinishi tushum kelishigidagi obyektga qaratilgan harakat ma'noli so'z birikmalarini hosil qilishi til sathidagi lisoniy imkoniyat bo'lsa, uning hosilalaridan tobe a'zosi -ni yoki -in varianti bilan shakllangan ko'rinishini tanlash bu imkoniyatni nutqiy, nutq muayyan shakli va vazifaga xoslanganligini inobatga olsak, demak, uslubiy vogelantirishdir. Shoir yoki yozuvchi, umuman, so'z san'atini egallagan ijodkor bilan oddiy so'zlovchining lisoniy imkoniyatlarni istifoda etishi orasidagi tafovutni saqlagan holda, aytish mumkinki, ijodkorning tilning mavjud imkoniyatlarini bilishi ulardan o'rinni foydalanishi bilan belgilanadi va badiiy tilning go'zal namunalarini yarata oladi.

**Xulosa.** Obrazlar surati va siyratida aks etgan obyektlar birikmalar poetik nutq vositasi sifatida gavdalanan ekan, badiiy nutq qonuniyatiga muvofiq hissiy ta'sirchan, jozibador va jonli tasvir hosil qiladigan ko'chimlarni vujudga keltiradi. Demak, obyektlar birikmalarning poetik-sintaktik vazifasi poetik nutqqa xos badiiy tasvir vositalarini shakllantirishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Назарова С. Бирималарда сўзларнинг эркин бўлганини омиллари. Номзодл. диссер... автореф.-Т., 1997.-21 6.
2. Oripov Abdulla. Menga xush xabar ayt. She'rlar.-T.: Ma'naviyat, 2009. - 128 b.
3. Tojiyev Yo., Hasanova N., Saidova R., Yo'ldosheva O. O'zbek naziq madaniyati va uslubiyat asoslari amaliyoti. - T.: 1994.-115 b.
4. G'afurov I. O'ttiz yil izbori: adabiy o'ylar, maqolalar.-T.: Adabiyot va san'at, 1987. - 400 b
5. Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi //Adabiyot va san'at: Adabiy-tanqidiy maqolalar, o'ylar, munozaralar. -T., 1987. -320 b.

UDC 808.3

#### TRANSFORMATION OF THE ACQUIRED KNOWLEDGE OF A FOREIGN LANGUAGE IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

N.N. Yusupova, teacher, Tashkent State University of Uzbek language and literature, Tashkent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogik sharoitlarda o'quv materialining o'ziga xos tomonlari shuningdek, o'qituvchi va talabalar faoliyatining dialektik birligi, talabalarining yangi innovatsion faoliyat olib borish mexanizmlari, nazariy muammolarning rivojlanishi va ularni bartaraf etish usullarini belgilaydi, kasbiy mahoratini oshirish kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** transformatsiya, metodlar, texnologiya, nutq, intellektual ruhiy taraqqiyot.

**Аннотация.** В этой статье описывается зависимость учебного материала в конкретных педагогических ситуациях, а также диалектическом единстве микропроцессов деятельности преподавателя и студентов, механизмы трансформации деятельности